

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentyabr holatiga

RAQAMLAR:


- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2041 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **-0,9 f.p kamaygan.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1920 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar– Buning natijasida joriy sentyabr oyida viloyatimizda yilning boshiga nisbatan 2391 ta korxonalar va tashfaoliyat ko`rsatayotgan korxkilotlar yangi tashkil etildi, ona va tashkilotlar soni 2041 bu esa o'tgan yilning shu ta (11,0 %) ga o'sgan hamda davriga nisbatan 613 taga ularning umumiyligi soni 20512 ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkorxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning asosiy ulushi Qarshi shu davriga nisbatan shahrida (21,3 %), Koson 36,3 % ga kamaygan (8,6 %), Chiroqchi (7,9 %) hamda ularning soni 471 va Qarshi (7,6 %) tumanlari tani tashkil etganligini kuzatilmoqda. zatish mumkin.




Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|-------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | birlikda | jamiga nisbatan % | birlikda | jamiga nisbatan % |
| Qashqadaryo viloyatida | 21111 | 100,0 | 20512 | 100,0 |
| Qarshi shahar | 4581 | 21,7 | 4378 | 21,3 |
| Shahrisabz shahar | 1349 | 6,4 | 1339 | 6,5 |
| tumanlar: | | | | |
| G'uzor | 950 | 4,5 | 898 | 4,4 |
| Dehqonobod | 1050 | 5,0 | 968 | 4,7 |
| Qamashi | 1400 | 6,6 | 1385 | 6,8 |
| Qarshi | 1581 | 7,5 | 1562 | 7,6 |
| Koson | 1785 | 8,5 | 1767 | 8,6 |
| Kitob | 1481 | 7,0 | 1473 | 7,2 |
| Mirishkor | 637 | 3,0 | 624 | 3,0 |
| Muborak | 805 | 3,8 | 770 | 3,8 |
| Nishon | 747 | 3,5 | 728 | 3,5 |
| Kasbi | 742 | 3,5 | 711 | 3,5 |
| Chiroqchi | 1665 | 7,9 | 1617 | 7,9 |
| Shahrisabz | 914 | 4,3 | 896 | 4,4 |
| Yakkabog' | 1424 | 6,7 | 1396 | 6,8 |

Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,2 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi –0,9 ga kamaygan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,9 % savdoda, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,3 % qurilishda, 11,7 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 29,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2391 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 34,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (505 ta), Chiroqchi (219 ta), Yakkabog' (187 ta) va Koson tumanlarida (175 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (84 ta), Kasbi (90 ta) hamda Dehqonobod (92 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (385 ta), sanoatda (380 ta), savdoda (378 ta), qurilishda (335 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (101 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (25 ta), tashish va saqlashda (61 ta) hamda sog'lqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (79 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-sentyabr holatiga | 2018 yil yanvar-sentyabr holatiga |
|----------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Jami: | 1778 | 2391 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 384 | 385 |
| Sanoat | 345 | 380 |
| Qurilish | 219 | 335 |
| Savdo | 300 | 378 |
| Tashish va saqlash | 61 | 61 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 112 | 101 |
| Axborot va aloqa | 40 | 25 |
| Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 40 | 79 |
| Boshqa turlari | 277 | 647 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 oktyabr holatiga 16430 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 7157 ta, oilaviy korxonalar – 654 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7728 ta, aktsiyadorlik jamiyatlar – 42 tani va boshqalar 849 tan tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 72 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 33,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 54 tasi qo'shma korxonalar, 18 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 26 ta (35,1 %), Kitob tumani 11 ta (14,9 %), Qarshi tumani 6 ta (8,1 %), Qamashi tumani 6 ta (6,8 %), Shahrishabz shaharlari 4 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod tumanlari 1 ta (1,4 %) Yakkabog', Nishon, Kasbi, Chiroqchi, Shahrishabz tumanlarida 2 ta (2,7 %) hissalariga tog'ri keladi. Mirishkor tumanida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 43 ta (59,7 %), savdoda 11 ta (15,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (9,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda hamda axborot va aloqada 1 ta (1,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari 2 ta (2,8 %), qurilish 4 ta (5,6 %), boshqa turlar 3 ta (4,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 6,7 baravarga oshgan.

Bunda, AQSh rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta va Afg'oniston Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Janubiy Koreya Respublikasi– 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 4 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16289 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 11,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3617 tasi (22,2 %) Qarshi shahriga, 1448 tasi (8,9 %) Koson, 1318 tasi (8,1 %) Qarshi hamda 1249 tasi (7,7 foizi) Chiroqchi, 1157 tasi (7,1 foizi) Kitob tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16289 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4671 tasi (28,7 %) – savdoda, 2586 tasi (15,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2494 tasi (15,3 %) - qurilishda, 2354 tasi (14,5 %) - sanoatda, 823 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 729 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 346 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 231 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2055 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2239 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (469 ta), Chiroqchi (207 ta), Yakkabog' (179 ta) va Qarshi tumanlarida (173 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (82 ta), Dehqonobod (82 ta) hamda Kasbi (83 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (384 ta), sanoatda (380 ta), savdoda (378 ta) va qurilishda (335 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (25 ta), tashish va saqlashda (61 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (78 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 668 tani tashkil etib, ulardan 654 tasi yoki 97,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **28,0 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 29,5 % yoki 193 tasi sanoat, 18,8 % yoki 123 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 18,7 % yoki 122 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,3 % yoki 100 tasi savdo, 2,8 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,7 % yoki 11 tasi qurilish, 1,5 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 11,5 % yoki 75 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**

(0371) 230-84-11
(0375) 221-17-93

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**